

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON” ROMANI TARJIMALARIDA
NUTQIY IBORALARNING O‘GIRISH MASALALARI

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА РЕЧЕВЫХ ВЫРАЖЕНИЙ В ПЕРЕВОДАХ РОМАНА
АБДУЛЛЫ КАДЫРИ “МЕХРОБДАН ЧАЁН”

THE PROBLEMS OF RENDERING SPEECH PATTERNS IN TRANSLATIONS OF
QODIRIY'S “MEHROBDAN CHAYON”

Raximova Irodahon Bahodirovna

*"Tillar va gumanitar fanlar" kafedrasida o'qituvchisi,
Andijon davlat texnika instituti,
E-mail: rakhimova1974@gmail.com*

Рахимова Иродахон Баходировна

*преподаватель кафедры «Языков и гуманитарных наук»,
Андижанский государственный технический институт,
E-mail: rakhimova1974@gmail.com*

Rakhimova Irodakhon Bahodirovna

*Teacher, Department of "Languages and Humanities",
Andijan State Technical Institute,
E-mail: rakhimova1974@gmail.com*

ANNOTASIYA

Muayyan xalqning tilini bilish uning butun borlig'ini anglash demakdir. Tilni va tadqiqqa tortilgan mamlakat madaniyatini bilmay turib, hech qanday tadqiqotchi o'z tadqiqini amalga oshira olmaydi. Nutqiy kalimalar o'z-o'zidan tilda paydo bo'lmaydi. Ularni shakllantiruvchi bir qator omillar mavjud. Birinchi navbatda, millatning milliy xususiyatlari, milliyligi, urf-odatlarini asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki har bir millatning o'ziga xos nutqiy kalimalar bor. Shundan kelib chiqib, birinchi navbatda, nutqiy kalimalarning vujudga keltiruvchi omillarning eng asosiysi milliy urf-odat va a'analar deb qarashimiz kerak bo'ladi.

АННОТАЦИЯ

Знание языка определенного народа означает понимание всего его существования. Не зная языка и культуры исследуемой страны, ни один исследователь не сможет успешно провести свое исследование. Речевые клише не возникают в языке сами по себе. Их формирует ряд факторов. В первую очередь, национальные особенности, самобытность и традиции народа являются одними из ключевых определяющих факторов. Это связано с тем, что у каждого народа есть свои уникальные речевые модели.

Из этого следует, что наиболее важным фактором формирования речевых клише следует считать национальные обычаи и традиции.

ABSTRACT

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Understanding a particular nation's language means understanding its entire existence. Without knowledge of the language and culture of the country under study, no researcher can successfully conduct their research. Speech patterns do not emerge in a language on their own. There are a number of factors that shape them. Primarily, the national characteristics, identity, and traditions of a people are among the key determinants. This is because every nation has its own distinct speech patterns. From this, it follows that the most fundamental factor in the formation of speech patterns should be considered the national customs and traditions.

Kalit so'zlar: urf-odat, mamlakat madaniyati, halqning tarixi, milliylik, donishmandlik manbai...

Ключевые слова: обычаи, национальная культура, история народа, национальная идентичность, источник мудрости...

Keywords: customs, national culture, history of the people, national identity, source of wisdom...

Til eng murakkab, ayni choqda benihoya o'ziga xos ijtimoiy xodisadir. Tilda xalqning urf-odati, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi xalqning bor-budi, bo'ybosti aks etadi. Muayyan xalqning tilini bilish uning butun borlig'ini anglash demakdir[7.82]. Tilni va tadqiqqa tortilgan mamlakat madaniyatini bilmay turib, hech qanday tadqiqotchi o'z tadqiqini amalga oshira olmaydi. Shu sababli ham, muayan xalq tilining mazmuni, mohiyatini idrok etish shu halqning tarixi-yu kelajagini, urf-odatini anglashdan boshlanadi.

Nutqiy kalimalar o'z-o'zidan tilda paydo bo'lmaydi. Ularni shakllantiruvchi bir qator omillar mavjud. Birinchi navbatda, millatning milliy xususiyatlari, milliyligi, urf-odatlarini asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki har bir millatning o'ziga xos nutqiy kalimalar bor. Shundan kelib chiqib, birinchi navbatda, nutqiy kalimalarning vujudga keltiruvchi omillarning eng asosiysi milliy urf-odat va a'analar deb qarashimiz kerak bo'ladi.

U. Tursunov milliy urf-odat an'analar haqida o'zining nazariy qarashlari haqida fikrlar ham bildirib ketganlar: milliy urf-odat an'analar - donishmandlik manbai, hayt sabog'i hisoblanadi. Tarixiy taraqqiyotning hal qiluvchi kuchi hisoblangan xalq mana shu urf-odat va an'analarning ijodkorlaridir. Jamoat uchun zarur bo'lgan barcha moddiy ne'matlarning-turar joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak kabilarni mehnat malakasiga, ishlab-chiqarish tajribasiga ega bo'lgan kishilar bunyod etgani kabi qadimgi madaniy merosimiz an'ana va urf-odatlarimizni ham xalqimiz vujudga keltirgan. Bugungi kunning qadriga yetish uchun odamlar o'tmishni yaxshi bilishi kerak. Ildizsiz daraxt bo'lmaydi, daraxt qancha tomir otsa, u shuncha gullab yashnaydi, unib o'sadi-bejiz aytishmagan ota bobolarimiz.

O'zbek xalqining milliy an'analari avloddan-avlodga o'tib kelmoqda va yoshlarning tarbiyalashda katta rol o'ynamoqda. Qadimgi urf-odat, an'analimiz bo'lmaganda edi, hozirgi turmush tarzi bo'lmasdi. Biz fikr yuritayotgan xalqimiz nutqidagi tayyor kalimalar mana shu urf-odat va an'analarning mahsulidir.

Milliy an'analimiz hayot sabog'idan dars berganligi uchun ham bu kalimalar xalqimiz nutqida mustahkam o'rnashib qolgan. **Masalan**, marosimlar an'analimizning birinchi ko'rinishi, urf-odatlarining amaliy ifodasidir. Marosim qat'iy tartib qoidalar oldindan belgilab olingan rasm-rusumlar ya'ni, muayyan mezon asosida o'tkaziladi, uning qonun qoidalariga barcha amal qilishi shart[7.82]. Demak, marosimlar an'analarimizning bir ko'rinishi bo'lsa, urf-odatlar ularning amaliy ifodasi ekan degan hulosaga kelish mumkin.

So'zlashuv nutqiga xos nutqiy kalimalarning mavzuiy jihatdan quyidagi guruhlariga ajratish asosida lisoniy tahlil qilish mumkin.

1. Salom-alik ma'nosini bildiruvchi nutqiy kalimalar:

O'zbek tilida: Assalomu alaykum, va alaykum assalom, yaxshimisiz, bormisiz, salomatmisiz, tuzukimisiz, tinchmisiz, eson-omonmisiz kabilar.

Ingliz tilida: "How do you do?" "Hello", "Good morning", "Good afternoon", "Good evening", "How are you?"

2. Minnatdorchilik ma'nosini bildiruvchi kalimalar:

O'zbek tilida: rahmat, balli, ofarin, minnatdorman, baraka toping, barakalla, ko'p yashang, tashakkur kabilar.

Ingliz tilida: Thank you? Not at all, Live Long! God bless you!, Thanks!

3. **Erkalashga oid kalimalar:** bunday nutqiy kalimalar o'zining qo'llanish doirasi va ma'nosiga ko'ra, qon-qarindoshlik, do'stlik va intim muamalani bildiruvchi erkalov so'zlarga bo'linadi.

A) **Qon-qarindoshlik munosabatini ifodalovchi erkalov nutqiy kalimalari.** bular sevish, kiyichraytirish, ma'nolarinin anglatib keladi:

O'zbek tilida: bo'talog'im, qo'zichog'im, singilginam, ukajonim, bolaginam, chirog'im, toychog'im kabilar.

Ingliz tilida: my bud, my lamb, my dear sister, My dear brother, my darling, my light, my pony.

B) **do'stlik ma'nolarini bildiruvchi erkalov nutqiy kalimalar.** bu guruhga mansub so'zlar qarashlari, faoliyati bilan o'zaro yaqin shaxslar o'rtasidagi munosabatni bildiradi.

O'zbek tilida: o'rtoq, og'ayni, oshna, jo'ra, ulfat, birodar, hamdam, dugona kabilar.

Ingliz tilida: friend, partner, girlfriend, brother.

c) **Ko'ngilga yaqinlikni bildiruvchi erkalov nutqiy kalimalar:** janonim, sevgilim, vafodorum, azizam, xonim, yolg'izim kabilar

Ingliz tilida: darling, my love, dear, my lady, sweetheart, beauty, lonely

4. **Rozilikni bildiruvchi nutqiy kalimalar.** Bunday kalimalar so'zlovchining aytilayotgan fikrini tasdiqlashi yoki biror fikriga qo'shilishini ko'rsatadi.

O'zbek tilida: ha, shunday, mayli, xo'p, to'g'ri, yaxshi, albatta kabilar.

Ingliz tilida: yes, of course, certainly, right, O.K

5. Emotsional-modal ma'no beruvchi kalimalar:

O'zbek tilida: oh, voy, ofarin, voydod, qoyil, barakalla kabilar.

Ingliz tilida: oh, wow, well, well done, awesome.

Bunday emotsional ma'no bildiruvchi kalimalar undov so'zlar bilan yoki so'zlovchining ma'lum xabarga yoki predmet, voqea-hodisalarga bo'lgan modal munosabatini anglatuvchi so'zlar bilan ifodalanadi.

6. Diniy mavzuga oid nutqiy kalimalar:

O'zbek tilida: inshaolloh, astag'furilloh, xudoga shukur, tavba qildim kabilar.

Ingliz tilida: oh, my god, blessing be on god, God saves us, Thanks to heaven

7. Inkori ma'nosini bildiruvchi nutqiy kalimalar:

O'zbek tilida: yo'q, aksincha, hech kabilar.

Ingliz tilida: no, never, non, neither, nor

Bu kalimaalar berilgan savolga so'zlovchining inkori javobini yoki ma'lum fikrga qo'shilganini ifodalaydi.

8. Tan berish ma'nosini bildiruvchi nutqiy kalimalar:

O'zbek tilida: ofarin, o'lmang, besh ketdim, tan berdim, bor bo'ling kabilar.

Ingliz tilida: OK, well, good, amazing, awesome, you are the best

9. **Pand-nasihati ma'nosini ifodalovchi nutqiy kalimalar:**

O'zbek tilida: baxtli bo'ling, qo'sha-qaring, omadingizni bersin, baraka toping kabilar.

Ingliz tilida: be happy, live long, successes, God bless you

10. **Qarg'ish-koyish ma'nosini ifodalovchi nutqiy kalimalar:**

O'zbek tilida: jinni, tentak, ovsar, galdir, gangir, qurg'ur, yer yetgur, yer tishlagur, juvonmarg kabilar.

Ingliz tilida: crazy, stupid, mad

Ra'noning egasi nomli I-bobida berilgan matnga e'tiborni qaratsak: *Solix **maxdum** bu kun odatdan tashqari eshilib ketdi, **masjiddan** chiqib to'g'ri **qassobning** oldiga bordi, **bir tangalik** go'sht, sakkiz pullik piyoz olib havlisiga keldi. Maktabda husnihat mashq qilib o'lturguvchi bolalar ichidan ikkitasini gulzorni supurib, suv sepishka buyurdi va o'zi go'shtni ko'tarib ichkariga kirdi[1.3].*

Maxdum[2.288] (yoki) **maxsum**-arabcha so'zdan olingan bo'lib, janob, ho'jayin; ishga oluvchi, yo'llovchi-ulamolar va ruhoniylar, pir va ustozlarga beriladigan unvon, laqab va shu unvonga ega bo'lgan kishi

Masjid[4.550]- [sajda qilinadigan, namoz o'qiladigan joy, machit; ibodatxona] Musulmonlarning jam bo'lib, namoz o'qiydigan ibodatxonasi. Mahalla masjidida hufton azoni aytiladi, shundan bir oz keyin Ra'nolar darvozasi ham g'iqillab ochildi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon

Qassob[5.356]- [qo'y-mol so'yuvchi] Mol so'yuvchi va go'sht bilan savdo qiluvchi shahs. Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin. Maqol. Echkiga-jon qayg'usi, qassobga-yog' qayg'usi. Maqol. Xovli chetida qo'l-oyog'li bog'loqliq qo'y tepasida turgan qassob Me'morga qarab:-Fotixa bering,-dedi. Mirmuxsin, Me'mor.

bir tanga[5.196]- Tanga.1 tar. Buhoro xonligiga 15 tiyinga, Qo'qon honligida 20 tiyinga teng bo'lgan kumush pul. Bir tanga (yigirma tiyin) Yarim tanga o'n tiyin. Tuya bir tanga-qani bir tanga. Tuya ming tanga-mana ming tanga. Maqol

husnihat[3.150]- 1.Qoidaga muvofiq chiroyli qilib yozish; kalligrafiya. Institut huzuridagi boshlang'ich ta'lim kabinetida o'quvchilarga husnihat o'rgatish bo'yicha husnihat o'rgatish bo'yicha bir oylik seminar o'tkazildi. Gazetadan

Chiroyli yozuv, chiroyli hat. [Po'lat] Konvert ustidagi adressga, tanish va qadrli husnihatga tikilganicha, hayolga cho'mdi. Sh. Rashidov, Qudratli to'lqin.

Ingliz tiliga o'girilgan matnga ham e'tiborni qaratsak:

Ingliz tilida asarning nomini tarjimon **Rano's owner** deb nomlagan. Ushbu bobning yuqorida o'zbek tilida berilgan matnning tarjimasini ham berib o'tsak: Today **Solikh Mahdum** was more revealed than usual. Having got out of the **mosque** he went straight to the **butcher** and bought some meat for **one coin** and some onions for 8 sums, and so he returned home. He asked two boys who were practicing their **handwriting** at the school to sweep and water the yard and he himself entered his house.

Ingliz tilining izohli lug'ati **Merriam-Webster** nomli lug'atida **mosque[8.6]** leksemasiga quyidagicha izoh berilgan: a building used for public worship by Muslims. **Tarjimasini:** musulmonlar jamoati ibodati uchun foydalaniladigan bino; Ushbu lug'atda **mosque** leksemasining etimologiyasini ham berib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin. Mosques were known to the English-speaking world long before we called them *mosques*. In the 15th, 16th, and 17th centuries, we used many different variations of the word—*moseak*, *muskey*, *moschy*, *mos'keh*, among others—until we finally hit on *mosquee*, emulating Middle French. The Middle French word had come by way of Italian and Old Spanish from the Arabic word for "temple," which is *masjid*. In the early 1700s, we settled on the

present spelling, and *mosque* thus joined other English words related to Muslim worship: *mihrab*, for the special niche in a mosque that points towards Mecca; *minaret*, for the tall slender tower of a mosque; and *muezzin*, for the crier who, standing in the minaret, calls the hour of daily prayers.

Tarjimasi: **mosque** leksemasini ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar orasida **masjid**-mosque deb atalishi ancha vaqtni o'z ichiga oladi. 15, 16 va 17-asrlarda ushbu nutqiy kalimaning juda ko'plab muqobillarini ishlatilgan - **moseak, muskey, moschi, mos'keh** va boshqalar. *Masjid* nutqiy kalimasi paydo bo'lmaguncha, o'rta frantsuz tiliga taqlid qilingan holda qo'llanilib kelingan. O'rta frantsuzcha so'z italyan va eski ispan tillarida arabcha "**ma'bad**" so'zi orqali kirib kelgan, ya'ni **masjid**. 1700-yillarning boshlari kelib esa, ushbu nutqiy kalima hozirgi *mosque* shu tariqa masjid musulmonlarga **sig'inish bilan bog'liq** boshqa inglizcha so'zlarga qo'shildi va shu tariqa **mihrab** nutqiy kalimasi hosil bo'ldi, Makka tomon ishora qiluvchi masjididagi maxsus joyga aylandi; minora, masjidning baland, ingichka minorasi uchun; va muazzin, minorada turib har kungi namoz vaqtini chaqiruvchi nidochi uchun hizmat qiladigan joyga aylandi.[8.9]

Butcher nutqiy kalimasining ingliz tilida ham berilgan izohini berib o'tsak: a person who slaughters animals or dresses their flesh; a dealer in meat; one that kills ruthlessly or brutally; one that bungles or botches; a vendor especially on trains or in theaters; **Tarjimasi:** hayvonlarni so'ygan yoki go'shtini shiluvchi kishi; go'sht sotuvchisi; shafqatsiz yoki shafqatsizlarcha o'ldiradigan kishi; sotuvchi kishi, ayniqsa poezdlarda yoki teatrlarda;

a coin nutqiy kalimasini ham ingliz tilida berilgan izohiga e'tiborni qaratamiz: **a coin**[8.5]- a usually flat piece of metal issued by governmental authority as money; something resembling a coin especially in shape; something used as if it were money (as in verbal or intellectual exchange); something having two different and usually opposing sides —usually used in the phrase *the other side of the coin*. **Tarjimasi:** davlat hokimiyati tomonidan pul sifatida chiqarilgan odatda tekis metall parcha; ayniqsa shakli bo'yicha tangaga o'xshash narsa; pul kabi ishlatiladigan narsa (og'zaki yoki intellektual almashinuvda); ikki xil va odatda qarama-qarshi tomoni bo'lgan narsa - odatda *the other side of the coin* -tanganing boshqa tomoni iborasida ishlatiladi.

Handwriting[8.3]-writing done by hand; *especially* : the form of writing peculiar to a particular person; something written by hand. **Tarjimasi:** qo'lda yozish; ayniqsa, ma'lum bir shaxsga xos bo'lgan yozuv shakli; qo'lda yozilgan narsa;

Yuqorida o'zbek tilida berilgan asliy matndagi nutqiy kalimalarning ingliz tilida berilgan gapda muqobillarini ko'rib chiqdik. Asliy matnda berilgan nutqiy kalimalrning muqobiilarini tarjimon to'g'ri qo'llay olgan desa bo'ladi, biroq **one coin** nutqiy kalimasini tarjimon **a coin** deb berganda, yahshiroq bo'lardi deb o'ylaymiz, chunki ingliz tilidagi noaniq artikli **a** ning ma'nosi **bitta, yagona** degan ma'noni anglatganligi bois, **one coin** emas balki **a coin** bo'lishini ingliz tilining izohli lug'atlarida ko'rib chiqdik.

Asliy matnda berilgan **husnihat** nutqiy kalimasiga tarjima matnida **handwring** nutqiy kalimasini berib o'tgan, bizningcha tarjimonni tarjimasi muvoffaqiyatli chiqqan deb aytsak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. –T. Adabiyot va san'at nashriyoti. 1994.-B.3
2. A. Qodiriy. «Mehrobdan chayon» / roman / «Abadiy barhayot asarlar»turkumi / Nashrga tayyorlovchi: Xondamir Qodiriy.- T.: “Navro‘z”, 2019. - 288 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati.H-harfi.-B.550
4. O'zbek tilining izohli lug'ati.M-harfi.-B.550
5. O'zbek tilining izohli lug'ati.Q-harfi.-B.325

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

6. O'zbek tilining izohli lug'ati. T-harfi. -B.159
7. Миртожиев М. Махмудов Н. Тил ва маданият. -Т."Ўзбекистон"1992. -Б.82 (Mirtojiyev M. Mahmudov N. Til va madaniyat. -T. "O'zbekiston" 1992. -B.82)
8. <https://www.merriam-webster.com>

